

**O'QUVCHILAR O'RTASIDA PSIXOLOGIK MUHITNI
ANIQLASH VA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISH**

Turayeva Zamira Olmasovna

*Samarqand viloyat Pastdarg'om tuman 12-umumiyy
o'rta ta'lim maktabi psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilar o'rtasida psixologik muhitni aniqlash yo'llari, ularni hayotga tayyorlash hamda kasbga yo'naltirishning tashkiliy masalallariga qaratilgan bo'lib, ota-onalarning farzandlarini odobli, jismonansog'lom, ruxan tetik, ma'naviy yetuk qilib tarbiyalash, ularni kasbga yshnaltirish kabi muhim vazifalarni o'z ichiga olgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, bilim, malaka, mas'uliyat, g'oya, urfodatlar, sadoqat, madaniyat, komilllik, bag'rikenglik, sabr-toqat, ma'naviyat, ma'rifat

Demokratik jamiyatning muhim omillaridan biri, unda yashayotgan insonlarning jismonan sog'lom, ruxan tetik, ma'naviy yetuk va komilligi deb e'tirof etiladi. Ma'lumki, har bir inson oilada kamol topadi, uning ongini va dunyoqarashini shakllantirishga oiladagi muhit va o'zaro shaxsiy munosabatlar katta ta'sir ko'rsatadi. Oila mustaxkam, tinch, farovon va sog'lom bo'lsagina, jamiyat barqaror rivojlanadi. Uning mustaxkamligi oiladagi tinchlik –xotirjamlik, bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatlar, oila a'zolarining axloqiy tarbiyasiga bog'liq. Aynan oilada insonlarga xos ma'naviy – axloqiyqadriyatlar: o'zaro xurmat – izzat, ishonch e'tiqod, mexrimuxabbat, raxm-shavqat tuyg'ulari yaqqol namoyon bo'ladi. Ota-onaning muqaddas burchi va vazifasi nafaqat farzandni dunyoga keltirish, balki ularni yuksak ma'naviyatlari ma'rifatli va barkamol qilib tarbiyalash, jamiyatda o'rnini mustaqil ravishdatopishga shart – sharoit yaratib berishdan iborat. Sog'lom farzand tarbiyasida oiladagi ma'naviy muhitning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, ota-onaning ibrati va mas'uliyati har qachongidan muhimdir. Ushbu masalada matonatli, fidoiy, sabrtoqatli, ba'zan qattiqko'l tejamkor otaning ham, mexridaryo, bag'rikeng, yumshoq ko'ngil onaning ham o'z o'rni bor. Sog'lom farzand tarbiyasida ota-onalarning qanchalik pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo'lishining o'rni beqiyosdir.



Har bir ota-onan farzandining shakllanishi va ruxiyatidagi o‘zgarishlariga juda qiziqadi, ammo o‘zlaridan “bolamga bugun qancha vaqt ajratdim?” deb so‘raganlarida, qoniqtiradigan javobni kam oladilar. Qilingan tajribalarda, asosan 6 yoshgacha bo‘lgan davr ichida bolalarning shakllanishi ota-onalarning ularga qancha vaqt ajratishlari bilan bog‘liqligi kuzatilmoqda. Vaqt ajratish - bolalarning markaziy nerv sistemasi rivojlanishiga yaxshi ta’sir qilishi e’tirof etilmoqda. Ota-onan kundalik ishlarini bir tomonga surib,bolalariga, albatta vaqt ajratishi zarur. Bolangiz bilan o‘tkazgan vaqtingiz uning ishonchini oshiradi. Chunki unga vaqt ajratishingiz, bolaga ko‘rsatilayotgan e’tiborni bildiradi. Agar farzandingiz sizga qanchalik yaqin bo‘lsa, yomonliklardan shunchalik yiroqlashadi. Hayoti davomida siz va umuman oilasi bilan mustaxkam bog‘langan bo‘lsa, muammolar kamayadi.

Hozirgi kundagi eng katta taxlika bolalarning ta’sirchanligiga nisbatan e’tiborsizlikdir. Bu xolatga barham berilsagina, ekilgan ko‘chatlar ertaga juda shirin mevalar tuxfa etadi. Bolalarimizdagi salbiy harakatlarni yo‘qotishni istasak, uning ijobjiy harakatlarini ko‘proq ta’kidlashimiz va bu mavzuda ko‘proq suxbatlashishimiz kerak. Bolamizga “shuni aslo qilma, buni qila ko‘rma, yana bir marta shunday gapplashma” tarzidagi so‘zlarni aytganimizda, uni salbiyharakatlarini ko‘paytirgan bo‘lamiz, xolos. Har bir ota-onan bolalariga har xil munosabatda bo‘lishiga qaramasdan, ularga mexr bilan yaqinlashganda qo‘llab -quvvatlaydigan so‘zlarni ko‘proq ishlatishlari lozim. Qilgan har ishini maqtash, bola saviyasiga mos munosabatga kirishish u bilan gapplashganda ko‘zlariga qarab gapirish kerak. Mexr-muxabbatli muhitda tarbiya topgan bolalarning sog‘lom o‘sishi ilmiy tadqiqotlarda ham isbotlangan. Mexr va sevgiga to‘la oila bag‘rida ulg‘aygan bolalar o‘smirlik davrini kelishmovchiliklarsiz o‘tkaza oladi. Negaki, bu davrda har bir qiz va o‘g‘il bola biologik va psixologik o‘zgarishlarni boshidan o‘tkazadi. Bolaning do‘stlari davrasida o‘zgarishlar bo‘ladi. Bu davrda do‘stlik munosabatlari alovida ahamiyatga ega. Ayniqsa, bola tashqi ta’sirga tez beriladi. O‘zi istagan do‘stlar davrasiga qabul qilinishi o‘smir uchun muhim extiyojga aylangandek taassurot uyg‘otadi. Bu davrda ota-onalar o‘smirga yaqin do‘stiday muomala qilish shart. Sabr qilish qiyin, lekin uning mevasi shirin bo‘ladi. Har bir bolani yoshi, xarakterini hisobga olgan xolda unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kerak. Ular voyaga yetganlarida esa qo‘llab -quvvatlash, erkalatish odatini davom ettirishda xushyor bo‘lish lozim. Ortiqcha sevgi ham zararlidir. Ya’ni ortiqcha mexr-muxabbat va e’tibor ko‘rsatilgan bolalar erkatoy va xudbin, o‘ziga ishonchsiz bo‘ladi. Jamiyatga taxdid qiladigan qotil, o‘g‘ri - kissavur va firibgarlarning oilaviy hayoti tekshirilganda bu salbiy xislatlar mexr-muxabbatsiz o‘sgan bolalarning oilada olgan tarbiyasinatijasi ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Ota, bola va ona – bu uchlik doimo bir-birini sevishi kerak. Sevgi bo‘lmagan joyda bolaning sog‘lom o‘sishi mumkin emas. Ota-onalar ko‘rsatadigan eng chiroyli o‘rnaklaridan biri bir-birlariga bo‘lgan sevgilarini bolalariga ko‘rsatishlaridir. Asosan

otalar bunga juda e'tiborli bo'lishlari kerak. Bir-birlarini sevgan ota-onalari yonida bolalar o'zlarinijuda baxtli xis qiladilar. Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri shaxs rivojlanishi uchun munosib sharoitni yaratish va o'quvchilar ga to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirishdir. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki davrlaridan o'quvchilar ni kasb tanlashga yo'llash masalasi jamiyatning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Shaxs sifatlarini o'rghanish asosida uni ishlab chiqarish yoki aqliy mehnat sohasiga to'g'ri yo'naltirish, yosh avlodda zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamisha davlat va jamiyat mavjudligi hamda taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblangan.



Kasb tanlash shunday qaltis jarayonki, u insonni bir umrga baxtsiz yoki baxtli qilishi, barcha rejalarining barbod bo'lishi yoki amalga oshishiga asosiy sababchi bo'lishi mumkin. Baxtsizlik va omadsizlikni xohlamagan inson o'z tanloviga shuhba qilmagan holdagini har tomonlama mulohaza yuritib, qaror qabul qilishi lozim. O'quvchilar ni kasb tanlashga yo'llovchi asosiy omillar - bu jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilish istagi va shaxs sifatida komillikka erishishdan iborat. Shaxsning kasb tanlashi faqatgina uning xohishi va qobiliyatiga bog'liq bo'lmay, balki u yashaydigan jamiyatdagi erishilgan moddiy va ma'naviy sharoit, yutuqlar bilan ham belgilanadi. Biz har doim ham o'z iste'dodimizga muvofiq keladigan kasbni tanlay olmaymiz, ba'zan jamiyatdagi munosabatlarimiz bizga bog'liq bo'lmanan holda shunday shakllanib boradiki, natijada biron bir ta'sir ko'rsatishga ojiz bo'lib qolamiz. Jamiyatdagi sharoit, kasb tanlash va qobiliyatning o'zaro bog'liqligiga Ahmad al-Farg'oniy hayoti va faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. Agar allomaning izlanishlari o'zi tug'ilib o'sgan qishlog'i doirasida chegaralanib qolganida Ahmad al-

Farg‘oniy buyuk astronom bo‘lib yetishmagan bo‘lardi, chunki u tug‘ilib o‘sgan qishloqda astronomik bilimlar olish uchun yetarli shart-sharoit mavjud emas edi. Uning qobiliyati va iqtidori Sharqning ko‘plab mamlakatlari bo‘ylab to‘plagan ulkan izlanishlari orqali namoyon bo‘ldi. Iste’dod, jamiyatning ehtiyoji, kasb tanlash masalasi o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Biror kasb-hunarga iste’dodi bo‘lgan o‘quvchilar ning kasbni egallashida jamiyatda ushbu kasbga ehtiyojning mavjudligi va shu soha bo‘yicha erishilgan yutuqlar, kasbga tayyorlash uchun moddiy-texnika bazasining mavjudligi muhim o‘rin egallaydi.

Xulosa shuki, mehnat insonning hayotida muhim o‘rin tutibgina qolmay, turmushni mehnatsiz, yaratuvchiliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Mehnat tarbiyasi tarbiyaning mag‘zini, mazmunini tashkil etadi. Barcha xalqlarning eng ilg‘or an’analari mehnat jarayonida paydo bo‘lib takomillashadi. Mehnat an’analarining tayanchi sifatida o‘quvchilar ni hayotga, ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim rol o‘ynaydi. Ota-oná bo‘lish ulug‘ baxt, uning mas’uliyatli vazifasini ham bilishimiz shart va zarurdir. Shunday qilib, oila jamiyatning eng kichik yacheykasi bo‘lsada, jamiyat a’zolarini ma’naviy, ma’rifiy, jismonan sog‘lom va barkamol shaxs bo‘lib yetishishida katta matabhisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi” “O‘zbekiston” 2019 yil
2. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” Toshkent, “Ma’naviyat”,
3. B. Karimov. Hamma narsa bolam uchun. Toshkent, 2009.
4. E. G‘.G‘oziyev. Ontogenet psixologiyasi. Toshkent, 2010.
5. Sog‘lom oila - sog‘lom avlod - sog‘lom kelajak. Amaliy qo‘llanma. Toshkent –2012.